



FINLYANDIYA TA'LIM TIZIMI NIMASI BILAN AHAMIYATLI?

Maxmudova Zebiniso Maksud qizi

Buxoro davlat universiteti Pedagogika Instituti pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi. 1 kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5802038>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10 - dekabr 2021

Ma'qullandi: 15 - dekabr 2021

Chop etildi: 20 - dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Finlyandiya, O'zbekiston, o'qituvchilar, konsepsiya, rivojlanish, ta'lim to'g'risidagi qonun, tamoyil, tenglik, bepul ta'lim, individuallik, amaliylik, ishonch, ixtiyoriylik, mustaqillik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Finlyandiya ta'lim tizimining maqsadi, tamoyillari hamda ta'limni tashkil etish va faoliyat yuritishning zarur shartlari, Finlyandiya ta'lim tajribasiga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar haqida aytib o'tilgan

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda ijtimoiy-madaniy vaziyat o'zgardi. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti va qonun ustuvorligini barpo etuvchi ochiq mamlakatga aylandi, unga tez o'zgaruvchan dunyoga mustaqil mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga qodir yuqori malakali mutaxassislar kerak, bu albatta, ta'lim tizimi va uning sifatiga alohida talablar qo'yadi. O'zbekiston ta'lim tizimi jahon ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich moslashishi uchun keng imkoniyatlarga ega. Xorijiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish mahalliy pedagogik tajribani anglashga, ta'limni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dunyoda ta'limning rivojlanish yo'nalishlarini tushunish uchun eng muhimi, ta'lim sifatining yuqori darajasi xalqaro tadqiqotla tomonidan tasdiqlangan mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish tajribasini o'rganish demakdir.

O'zbekiston ham boshqa rivojlangan mamlakatlar singari ta'lim tizimini yana rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda. Boshqa xorijiy mamlakatlar singari O'zbekiston ta'lim tizimini tajribasini, jumladan Finlyandiya mamlakatining ta'lim tizimi tajribasini tahlil qilish juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Finlyandiya ta'lim sifati bo'yicha yetakchi davlatlar



guruhiga kiradi. Ushbu mamlakatda ta'lim butun dunyoda mutlaqo tan olingan. Finlyandiya hukumati haqiqatan ham o'z yoshlari haqida qayg'uradi. Bu o'zini moddiy yordamdan tortib, bolalar bog'chasiga kira olmagan bolalarning otalariga, bepul oily ma'lumotga qadar har jabhada o'z aksini topgan. O'zbekiston Finlyandiya modelini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida 2020 yilning 25 noyabrda "Finlyandiya ta'lim tajribasini o'rganish va uni O'zbekistonda keng joriy etish" bo'yicha onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Xalqaro onlayn uchrashuvda, O'zbekistondan: bosh vazir o'rinbosari Musayev Behzod, Ta'lim inspeksiya boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev, Tashqi ishlar vazirligi, Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari rahbarlari ishtirok etishdi. Finlyandiya hukumati tomidan esa: Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi LiivalaMarja; Tashqi ishlar vazirligi ta'lim bo'yicha elchisi Sall Maryana; Ta'lim vazirligi va Milliy ta'lim agentligi rahbarlari qatnashishdi. Xalqaro onlayn uchrashuvda, bosh vazir o'rinbosari Behzod Musayev o'z nutqida O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishda Finlyandiya bilan yaqindan hamkorlik qilish juda muhim va ahamiyatli ekanligini ta'kilab o'tdi.

O'z navbatida, Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Marja Liivala xonim uchrashuv tashkilotchilariga o'z minnatdorligini bildirdi va bu kabi tadbirlar Finlyandiya uchun ulkan sharaf ekanligini va ushbu hamkorlik ikki tomon uchun manfaatli ekanligini aytib o'tdi. Jumladan, Marja Liivala " Finlyandiya ta'lim sohasi uchun juda katta mablag' ajratdi. Bu jarayonda

yuqori malakali o'qituvchilar muhim ahamiyat kasb etdi. O'qituvchilik Finlyandiya jamiyatida nufuzli kasblardan biri hisoblanib, yoshlarning juda ko'pchiligi o'qituvchilik kasbini egallashga intilishadi. Ta'limga tikilgan mablag'lar mamlakatni noqulay iqlimiga qaramasdan, nochor davlatdan bilimga asoslangan iqtisodiyotga ega, yashash darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardan biriga aylantirdi. O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlod ijobiy o'zgarishlar va cheksiz imkoniyatlarni namoyon qilmoqda",-dedi o'z nutqida. Marja Liivala xonim kelajakdagi Finlyandiya ta'lim tizimini takomillashtirishda o'z tajribasi bilan o'rtoqlashishga hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar ajratishga tayyor ekanligini ham bildirib o'tdi[2].

Finlyandiyada ta'limni tashkil etish va faoliyat yuritishning zamonaviy shartlari quyidagilardan iborat:

- Fuqarolarning moddiy faravonligi va ijtimoiy tengligini kafolatlaydigan ijtimoiy davlat konsepsiyasini amalga oshirish;
- Iqtisodiy o'sishning yuqori su'ratlari, maktab tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- Ta'lim bo'yicha keng konsensusni ta'minlovchi siyosiy madaniyat va hukumatga ishonch;
- Ta'limni millat suverineteti va madaniy rivojlanishini ta'minlash;
- Maktab o'qituvchilarining yuqori ijtimoiy mavqeyini saqlash milliy dasturining eng muhim sifatida belgilash;



- Universitet ta'lim tizimida yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash;

Finlyandiya ta'lim tizimi bugungi kunda biz bilgan shaklda XX asrning 60 yillarida shakllangan. U haqli ravishda eng yaxshi ta'lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab qo'yilgan:

1. O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish;
2. Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish;
3. Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan maqsadlar bolaga asosiy narsani- mustaqil kelajakda muvaffaqiyatli hayotni o'rgatishi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham Finlyandiya maktablarda o'qituvchi yangi mavzuni aytmaydi- hamma narsa kitoblarda bor. O'rganilgan formular uncha ahamiyatga ega emas, muhimi ma'lumotnoma, matn, internet, kalkulyatordan foydalanish qobiliyatidolzarb muammolarni hal etish uchun zarur resurslarni jalb qilishdir. Shuningdek, maktab o'qituvchilari o'quvchilarning mojarolariga aralashmaydilar, ular hayotiy vaziyatlarga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini beradilar va o'zlariga qarshi turish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi[3].

Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega:

- Ta'lim va madaniyat vazirligi (Ministry of Education and Culture)

- Vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (Finnish National Agency for Education).[3]

Findlandiya ta'lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjud bo'lib, bu tamoyillar bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash hamda mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirishga qaratilgan. Findlandiya ta'lim tizimining asosi yettita tamoyilga: tenglik, bepul ta'lim, individuallik, amaliylik, ishonch va o'qituvchilar salohiyati, ixtiyoriylik va mustaqillik kabi tamoyillarga tayanadi.

Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, u barcha darajalarda to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Barcha o'quv materiallari, darsliklar, maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi. Boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga tushlik bepul beriladi. Finlyandiya ta'lim tizimi va jamiyati o'qituvchilarning malakasiga tayanadi. Ta'limda yaratilgan teng sharoitlar, uzoq muddatli ta'lim siyosati, ishonch madaniyati, mustaqil ta'lim olish va o'rganishga urg'u berish bu ta'lim tizimining muvaffaqiyatidir.

Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimi ham rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidan qolishmaydi. Ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida Finlyandiya ta'lim tizimidan foydalangan holda "O'zbekiston Ta'lim To'g'risidagi Qonuni" ga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Finlyandiya bolalari ta'limni boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ancha kechroq boshlaydilar. Ular 7 yoshdan



boshlab maktabga qabul qilinadi." Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan", deyilgan Finlyandiya ta'lim tizimida. O'RQ-637 qaroriga muvofiq 2020 yil 23-sentyabrda "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" ga o'zgartirish kiritildi. Unga muvofiq umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilida qabul qilinadi[1]. Finlyandiya 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kunduzgi bolalar bog'chalariga qatnaydilar, ammo u yerda darslar o'rniga ijodiy o'yinlarga e'tibor berishadi.

" Bu yoshdagi bolalarga o'ynash va jismoniy faol bo'lish uchun vaqt kerak. Bu yosh ijodkorlar davri", deydi Xelsinki shahridagi Franseniya kunduzgi davolash markazi rahbari Tina Marjoniemi.

O'RQ-637 qaroriga muvofiq 2020 yil 23-sentyabrda "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" da maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yeti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi",- deb belgilab qo'yilgan[1].

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi shunday. Finlyandiyaliklar mukammalikka da'vogarlik qilishmaydi, shuningdek, erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolishmaydi. Finlyandiyaliklarning farzandlari tunda asabiy zo'riqishdan uyg'onishmaydi va tezroq katta bo'lishni ham orzu qilmaydilar. Ularda maktabga nisbatan nafrat yo'q. O'quvchilar keyingi imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishadi, o'zlarini va boshqa oila a'zolarini qiynashmaydi. Mulohazali finlyandiya bolalari kitob o'qishadi, tarjimasiz filmlar ko'rishadi, ya'ni o'z tilida, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, musiqa va teatr pyesalari yaratib, sahnalarda ishtirok etib, o'zlari qo'shiq kuylashadi. Bolalar hayotdan quvonib yashashadi, shu bilan birga, ta'lim olishga ham ulgurishadi. Bu Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.
2. " O'zbekiston nega Finlandiya ta'lim modelini tanladi va uni qanday o'rganmoqchi?". Oz.sputniknews-uz.com. Toshkent. 26.11.2020.
3. " Finlyandiya ta'lim siyosatining muhim tamoyili yoxud Finlyandiya maktablarining muvaffaqiyati nima?". Tdi.uz matbuot xizmati.